




LISONIY PARADIGMA VA LISONIY TAVSIF

Dilnura Egamberdiyeva Xurshid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti , 1-bosqich talabasi

E-pochta: dilnuraegamberdiyeva4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17522107>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 4-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

guruh, soʻz turkumlari, tur, tasnif, guruhga ajratish, gap boʻlaklari, yordamchi soʻzlar

ABSTRACT

Ushbu tezisda tavsif tushunchasi taʼrifi , lisoniy tavsifning uchta turi mavjudligi, ularning tilshunoslikdagi tutgan oʻrni alohida yoritiladi.guruh, soʻz turkumlari, tur, tasnif, guruhga ajratish, gap boʻlaklari, yordamchi soʻzlar

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, oʻxshash belgi-xususiyatlarga ega boʻladi. Ana shu oʻxshashlik va umumiylik ularning birlashtiruvchi, bogʻlab, bir tizimda ushlab turuvchi belgilari sanaladi. Masalan, unlilar «sof ovozga egalik» umumiy belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgilarga ham ega boʻlishi shart. Masalan, [a] «ablanmaganlik», [o] «lablanganlik» farqlovchi belgilarga ega, «kenglik» belgilari esa ularni birlashtiradi.

Umumiy belgilari asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri oʻziga xos belgilari bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi paradigma deyiladi (paradigma grekcha paradeigma - misol, namuna degan maʼnoni bildiradi). Paradigmani tashkil etuvchi birliklar paradigma aʼzolari deb yuritiladi. Paradigma kamida ikkita aʼzoli va ular bir lisoniy sathga mansub boʻlishi shart. Bir paradigma aʼzolari orasidagi oʻzaro munosabat paradigmatic munosabat deyiladi.¹

Biz fikrlayotgan paytimizda turli guruhlariga boʻlingan soʻzlardan foydalanamiz. Umuman olganda tilshunoslikda deyarli barcha tushuncha guruhlariga boʻlingan.

Misol uchun, soʻz turkumlari ikkiga feʼllarning vazifa shakllari toʻrtga , qoʻshimchalar uchga boʻlinadi. Bunday sistemalash tilni maʼlum tasniflash uchun qulay vositadir. Tasnif soʻzi arabcha “ saralash “ “ tartiblash “ degn maʼnoni anglatishini hisobga olsak, borliqdagi narsalarni tartiblash juda kerakdir. Hatto tasniflar ham uchga boʻlinadi: dixotomik, politomik, dixopolitomik.

Dixopolitomik ikki guruhga ajratish maʼnosini beradi. Oʻzbek tilida dixotomikka unli va undoshni ajratish , oʻtimli va oʻtimsiz feʼllarni ajratish kiradi. Dixopolitomik ikki guruhga ajratish maʼnosini beradi. Oʻzbek tilida dixotomikka unli va undoshni ajratish , oʻtimli va oʻtimsiz feʼllarni ajratish kiradi. Politomik – koʻp tasniflash demakdir. Ikki yoki undan ortiq guruhlariga boʻlinishiga ushbu politomik jumlasini ishlatamiz. Gap boʻlaklarini, sifatning maʼnoviy guruhlarini misol qilolamiz.Keyingi guruh bu- dixopolitomikdir. Mazmunan birinchi ikkiga, keyin koʻp bosqichga ajratiladi. Deylik, soʻz turkumlari ikkiga yordamchi va mustaqil soʻz turkumlariga ajratiladi. Uning ichidan yordamchi soʻz turkumlariga ajratiladi. Uning

ichidan yordamchi soʻz turkumlariga koʻmakchi, bogʻlovchi , yuklama kiradi. Har bir narsaning qonun –qoidalari boʻlgani kabi paradigmaning ham qoidalari bor . Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega boʻlishi kerak. 1.Paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa aʼzolar ham xotirlanishi (esga olinishi) zarur.

2.Har bir konkret nutq sharoitida oʻzaro paradigmatic munosabatlarda

2.Har bir konkret nutq sharoitida oʻzaro paradigmatic munosabatlarda turgan birliklardan, yaʼni paradigma aʼzolaridan bitta tanlanishi

3.Bir paradigmaning aʼzolari oʻzaro oʻxshashlik bilan birga, har bir aʼzoikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishi lozim.

4.Paradigma aʼzolari nutqda bir pozitsiyada (mavqeda) kela olib, bir-birini maʼlum holatlarda almashtira olishi, oʻrnini egallashi mumkin. Ushbu qoidalarga amal qilgan holda tilshunoslikning har bir koʻrinishlari lisoniy birliklarga ajratiladi. Biz Paradigmatik munosabat atamasining muqobillari sifatida oʻxshashlik munosabati, assotsiativ munosabat atamalari ham ishlatiladi. Tizim atamasi ham koʻp hollarda paradigma atamasi oʻrnida ishlatiladi. Xulosa qilib aytganda , tillarning tasniflanishi, guruhlanishi zamon tilshunosligining rivojlanishiga asos boʻla oladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://azkurs.org/2-maruza-til-lison-va-nutq-munosabati-lisoniy-paradigma-va-uni.html?page=6>
2. B.Bahriddinova ,Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Fonologiya.Qarshi -2007
3. Tilshunoslik asoslari fanidan oʻquv qoʻllanma ,Jizzax 2021-yil
4. Internet manbalari